

## **IMTIHONGACHA NAZORAT - 2**

### **ONA TILI VA ADABIYOT**

#### **Tuzuvchi: Farida HAKIMOVA va DTM testlari**

(O'tkir Hoshimov) B) "Qochoq" (Said Ahmad) C) "Kecha va kunduz" (Cho'lpon) D) "Ruh bilan suhbat" (S.Zunnunova)

1. O'ta mavhum tuyg'u bo'lgan sevgini "yorilmagan yaraday" deya tasvirlagan ijodkor kim? A) Erkin Vohidov B) Muhammad Yusuf C) Abdulla Oripov D) Usmon Nosir
2. Farmoyish hujjatlari haqida berilgan fikrlardan qaysi biri to'g'ri emas? A) Ushbu hujjat turida gap kesimi majhul va ortirma nisbatda bo'ladi. B) Gap kesimi III shaxsdagi fe'llar bilan ifodalanadi. C) Gap kesimi buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi. D) Gap kesimi majhul nisbatdagi fe'llar bilan ifodalanadi.
3. So'z imlosida sodir bo'ladigan fonetik o'zgarishlar to'g'ri izohlangan javobni aniqlang. A) "k" va "q" undoshi bilan tugagan barcha so'zlarga egalik shakllari qo'shilganda tovush almashishi kuzatiladi. B) Kelishik qo'shimchalari qo'shilishi natijasida so'z asosida tovush almashishi bilan bog'liq fonetik o'zgarish kuzatilishi mumkin. C) Ayrim fe'llarga nisbat qo'shimchasi qo'shilishi natijasida tovush tushishi bilan bog'liq fonetik o'zgarish kuzatilishi mumkin. D) Ayrim fe'llarga o'tgan zamon sifatdash shakli qo'shilganda fe'l asosida fonetik o'zgarish kuzatiladi.
4. Mavjud urf-odatlarni buzib, tobut ko'tarib qaynonasini so'nggi yo'lga kuzatgan ayol obrazi qaysi asarda mavjud? A) "Urushning so'nggi qurboni"
5. Tarkibidagi jarangsiz undoshni jarangli jufti bilan almashtirib yangi ma'noli so'z hosil qilish mumkin bo'lgan so'zlar qatorini aniqlang. A) tarz, tovon, ganch B) tom, solih, qarz C) tog', sog', xiyla D) don, o'z, dil
6. Qaysi gapda imloviy xatoga yo'l qo'yilmagan? A) Yurtimizda yildan-yilga iste'dodli yoshlar safi kengayib bormoqda. B) Ma'suliyatli topshiriq ko'pincha shu bo'linmaga topshirilar edi. C) Vatan ravnaqi yo'lida g'ayrat bilan mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizni olqishlaylik. D) O'zbekiston Respublikasida 9-may xotira va qadrlash kuni deb e'lon qilingan.
7. Kimning ijodida „Malaklarning gul kosasidan umr tomchilab to'kilishi" uchraydi? A) Nazar Eshonqul B) Halima Ahmedova C) Halima Xudoyberdiyeva D) Shukur Xolmirzayev
8. Qaysi javobda berilgan gaplar juftligida o'zaro ma'nodosh so'zlar qatnashgan? A) Kechqurunlari shahar yana ham chiroyli bo'lib ketarkan. Kamtarinlik ham inson husnini yana-da oshirar ekan. B) Oh, go'zal Farg'onaning husni bugun qandoq emish. . . Favvoralar shahrimiz ko'rkini ko'z-ko'z qilib turibdi. C) Bu yigit juda tanti ekan. Qo'shnimiz erka o'g'lini yer-u ko'kka ishonmaydi. D) Xonaga bir norg'ul yigit kirib keldi. Salimjon bolaligida juda nimjon edi.

9. Yoshliging g'animat, bolam, o'sib, un, Chiqarma behuda sado hamda un. Ko'r, quyosh tig'ida va tegirmonda Ezilib so'ng aziz bo'ldi bug'doy – un. Ushbu parchada ajratib ko'rsatilgan so'zlar haqida berilgan qaysi fikr to'g'ri? A) 1- va 2-misradagi so'zlar bir xil turkumga mansub so'zlar sifatida o'zaro omonim sanaladi. B) 2- va 4-misradagi so'zlar har xil turkumga mansub so'zlar sifatida o'zaro omonim sanaladi. C) Ular bir xil va har xil turkumga mansub so'zlar sifatida o'zaro omonim sanaladi. D) Ular bir so'zning turli ma'nolarini ifodalovchi so'zlar sanaladi.
10. "Inim, har qanday mazhab janjallaridan yuqori turmoq lozim. Yagona husn mutlaq mavjuddir. Quyoshning nurida, to'lqinlarning jo'shqinida, tog'larning muazzam jussasida va yaproqlarning titrashida uning jamoli jilvasini ko'ramiz. Ko'ngilni uning ishqiy yodi bilan to'ldirmoq kerak". Ushbu fikrlar qaysi asar qahramoni tomonidan aytilgan? A) "Ulug'bek xazinasi" romanida Mirzo Ulug'bek tomonidan B) "Ulug'bek xazinasi" romanida Ali Qushchi tomonidan C) "Yulduzli tunlar" romanida Bobur D) "Navoiy" romanida Alisher Navoiy tomonidan
11. Qaysi javobda barcha sodda yasama so'zlarning yasaliş asosi bir xil so'z turkumiga mansub? A) Madaniy axloq kishining yurishida, so'zlashishida, odamlar bilan xayrlashishida aks etadi. B) Bilimdon, madaniyatli odam bilan johil, savodsiz o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. C) Iste'dodli, bilimdon, yangilikka intiluvchan yoshlar o'qish uchun chet ellarga yuborilmoqda. D) Aqliga aytdim, angladi – bildi, aqlsizga aytdim, shaqillab kuldi.
12. Quyidagi qaysi gapda o'zaro omonim ko'makchi morfemalar qatnashgan? A) Yuz tilim bo'ldi dilim bir bevafoing dastidan. B) Ko'rik-tanlovda biz g'olib bo'ldik. C) Bu qaro ko'zlar neni ko'zlar? D) Yaxshilikka yaxshilik qaytarish lozimligini esingdan chiqarma.
13. Hayot og'uga, turmush esa zimistonga o'xshatilgan asar muallifining ilk asari berilgan javobni aniqlang. A) „Sheralining mardligi“ B) „Studentlar“ C) „Tong nafasi“ D) „Tortiq“
14. Qaysi gapdagi sifatlarning barchasi ma'nosiga ko'ra bir guruhga mansubdir? A) Baqqol amaki o'zi pakana-yu, lekin yuzi katta, peshonasi keng, iyagi kalta, tabiatan kamgap odam. B) Uning chaqnoq ko'zlari, siyrak qoshi, o'ychan turishi katta bardoshini, sadoqatini aks ettirib turardi. C) Hovlilardan ko'tarilgan tutunlar ko'kimtir, mayin mavj bilan tiniq, sovuq havoda suzadi. D) Yalqov kishi – qo'rqqoq va g'ayratsiz bo'ladi; g'ayratsiz, qo'rqqoq kishi – maqtanchoq bo'ladi.
15. Ravishlarning ma'nosiga ko'ra ikki turi qatnashgan gapni toping. A) Munisa kamtarona tabassum bilan sekin qarab qo'ydi. B) Bugungi kelishuv haqida bafurja gaplashib oldik. C) Allamahalgacha farg'onalik chorvadorlar o'tovida chaqchaqlashib o'tirdik. D) Kechqurun salqin bo'ldi, ertalab biroz shudring tushdi.
16. "Mening bobolarim o'z davrining mashhur kishilari bo'lishgan ekan. Jumladan, bobolarim – bobomning

otalari Abulqosim eshon Turkiston tarixida chuqur iz qoldirgan ulug' shaxslardan bo'lgan ekanlar". Ushbu parchada qaysi adib o'zining mashhur bobokaloni haqida so'z yuritgan? A) Tohir Malik B) O'tkir Hoshimov C) Erkin Vohidov D) O'lmas Umarbekov

17. Tarkibida nisbat qo'shimchasi mavjud bo'lgan yasama fe'l ishtirok etgan gapni aniqlang. A) Boshida tashvishi bo'lishiga qaramay, bolani erkalashga, tarbiyalashga vaqt topdi. B) Daryoga doimiy ravishda irmoqlar kelib qo'shilib turmasa, uning oqimi jo'shqin bo'la olmaydi. C) Shunisi borki, yarador oyog'i ko'proq lat yegan bo'lsa kerak, u qop ko'targanda qiynalib yurdi. D) Uning xayollarini to'lin oy tog' daralariga olib ketardi.

18. Tumanimizda yangi inshoot barpo qildi. Ushbu gapning kesimi majhul nisbatdagi fe'lga aylantirilganda sodir bo'ladigan grammatik o'zgarish to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang. A) Fe'lda ifodalangan mayl ma'nosi o'zgaradi. B) O'timli fe'lning o'timsiz fe'lga aylanishi kuzatiladi. C) Ushbu gap shaxsi noma'lum gapga aylanadi. D) Fe'lda ifodalangan zamon ma'nosida o'zgarish kuzatiladi.

19. "Allohning karami-la sakkiz yuz yilda Jadiy burji ko'ringaydir kiyik shaklida. O'sha yili tug'ilgaydir bir Sohibqiron". Ushbu so'zlar sohibqiron dramasi dagi qaysi qahramonga tegishli? A) Bibixonim B) Mir Said Baraka C) Yassaviy D) Shayxulislom

20. Ko'zi qora, yuragi oq shu el uchun, Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun. Ulug' inson boshlab bergan shu yo'l uchun, Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun? Uyushiq aniqlovchi tobelanib kelgan bo'lakka nisbatan hokim so'z haqida bildirilgan fikrlardan qaysilari to'g'ri? 1. Gapda to'ldiruvchi vazifasida kelgan; 2. Tarixiy-an'anaviy yozuv asosida yozilgan; 3. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar soni 5 ta; 4. Gapda kesim bo'lib kelgan; 5. Vositasiz to'ldiruvchiga nisbatan hokim so'z bo'lib kelgan; 6. Vositali to'ldiruvchiga nisbatan hokim so'z bo'lib kelgan; 7. Ushbu so'z tarkibidagi sirg'aluvchilar soni 1 ta; 8. Ushbu so'z tarkibidagi portlovchilar yo'q. A) 1,7,8 B) 2,4,6,7 C) 3,4,6,7 D) 4,6,7

21. Qimmat ham o'sha sehrigar kampirning uyiga kelib qolibdi, ammo u kampirga hatto bir og'iz ham shirin so'z aytmabdi, dangasaligi va qo'polligi tufayli kampirning marhamatiga sazovor bo'la olmabdi. Ushbu gapdagi yordamchi so'zlarga mansub birliklar haqida berilgan to'g'ri fikrni toping. A) Gapda yuklamalar bir xil gap bo'laklariga qo'shimcha ma'no yuklashga xizmat qilgan. B) Yordamchi so'zlarning har bir turkumiga oid birliklar ishtirok etgan. C) Sof va vazifadosh ko'makchi qatnashgan. D) Bog'lovchining vazifasiga ko'ra ikki turi qatnashgan.

22. "Sarob" romanida "...obro'yi, ulug' sifatliligiga qaramay, takabbur emas, dilkash, ko'nglida kiri yo'q, kim qanday yomon ahvolda qolsa yordam qo'lini cho'zadi: ma'naviyatni sevadi, o'zbek xalqidan dohiylarchiqishini tilaydi" deya tasvirlangan qahramon kim? A)

Salimxon B) Saidiy C) Tesha D) Kenja

**23.** Qaysi gapda hokim qismi sifat bilan ifodalangan boshqaruv munosabatli so'z birikmasi qatnashgan? A) Dunyoda onadan mehribonroq inson bo'lmasa kerak. B) Agar birorta kichikroq baliq suv yuziga suzib chiqsa, mushuk bir hamla bilan ushlab olarkan. C) Shunda pastakkina bir uydan dahshatli faryod eshitildi. D) Bu ish juda nozik, nihoyatda muhim edi.

**24.** Qaysi gapda qaralmish egaga tobelanib kelgan? A) O'sha tunning dahshatini eslash unga qattiq azob berar edi. B) Azobdan qiynalgan Manzuraga bu shaharning tuni behad uzunday edi. C) Sanoqsiz chiroqlar yorug'ida bog' to'lin oy nuriga cho'mganday so'limlik kasb etgan edi. D) Bu so'limlik ham uning kayfiyatini yaxshilashga qodir emas edi.

**25.** 1926-yilgi tarixiy voqealardan biri asos qilib olingan asar nomida sirg'aluvchilar soni nechta? A) 2 ta B) 6 ta C) 1 ta D) sirg'aluvchilar mavjud emas

**26.** Yaxshi so'zga uchar qushlar el bo'lar, Yomon so'zga pashsha kuchi fil bo'lar. Ushbu gap haqidagi qaysi fikr to'g'ri emas? A) Egalar tub so'zlar bilan ifodalangan. B) Ega vazifasini bajargan qaralmish qatnashgan. C) Ega vazifasini bajargan sifatlanmish qatnashgan. D) Egalar turli so'z turkumiga oid so'zlar bilan ifodalangan.

**27.** Mustaqil va nomustaqil vositali to'ldiruvchi qatnashgan gapni aniqlang. A) Nafsing bilan maslahat qilishdan avval hamyoning

bilan kengash. B) Yaxshiga yaxshi nom fe'ldan yetar. C) Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam – o'qish. D) Biz, avvalo, poyonsiz dalalaringni, olamdagi bor go'zallikni o'z bag'rida yashirib yotgan yamyashil bog'laringni, anhorlarda sharaqlab oqqan suvlaringni o'ylaymiz.

**28.** Sa'diyning qaysi hikoyati masnaviy yo'lida yozilgan? A) Daryo ko'rmagan qul haqidagi hikoyat B) Hayit kuni adashib qolgan bola haqidagi hikoyat C) O'g'lining qilmishi uchun zindonga tushgan darvesh haqidagi hikoyat D) Hunar o'rganmoqning afzalliklari

**29.** Qaysi javobda aralash murakkab qo'shma gap berilgan? A) Kishilarning huquqiy ongi yuksalsa, har kim o'z haq-huquqini bilsa, jamiyatda demokratiya rivojlanadi. B) Sabr boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lishimizni talab etadi, shuning uchun ham, avvalo, har bir ishda sabr bilan harakat qilish lozim. C) Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukik, sening ziyoratingga keldim, sultonim. D) Bilingki, hunarsiz kishi quruq savlatdir, quruq savlat esa qotib turgan suratga o'xshaydi.

**30.** "Bu yerlarga turnalar tushardi. Turnalar o't-giyohlarni terib teb, qo'y-qo'zilarining orasida bemalol, behadik yuraverishardi. Shuningdek, Qo'ng'irtovda u paytlari kiyik ko'p edi. Keyinchalik atrof-tevarakni odamlar ishg'ol qilib olishgach, yovvoyi hayvonlar o'z-o'zidan yo'qoldilar. Turnalar, laylaklar kelmay qo'ydi. Kiyikni esa hazrati Insonning o'zi yeb bitirganiga o'zim guvohman". Ushbu parcha qaysi ijodkorning

tarjimayi holidan keltirilgan? A)  
E.Vohidov B) A.Oripov C) O'.Hoshimov  
D) Mirtemir

## BIOLOGIYA

**Tuzuvchi: Farrux FUNUN**

- 31.** Drozofillaga xos xususiyatlarni aniqlang.  
1. Laboratoriyada oson ko'payadi, serpusht 35-36<sup>0</sup>C da har 10-15 kunda ko'payadi; 2. Qisqa hayot sikliga ega; 3. 2 ta qiyofadosh turi bor – bu morfologik mezon nisbiyligini tushuntiradi; 4. Rayt drozofillada "Genlar dreyfi", ya'ni genlarni tasodifiy tarqalishini isbotlab bergan; 5. Odam-drozofilla solishtirilganda S sitoxrom oqsilidagi aminokislotalar farqi 29 taga teng A) 2,3,4,5 B) 1,2,3,5 C) 1,4,5 D) 2,3,4
- 32.** Sariq gulli o'simliklarni aniqlang. A) qizil do'lana, sebarga, burchoq B) sebarga, g'o'za, sigirquyruq C) zirk, gulsafsar, sallagul D) g'o'za, zirk, sigirquyruq
- 33.** Plazmid ... 1) xrosomadan tashqarida joylashadi; 2) o'z-o'zini replikasiya qiladi; 3) halqali DNK molekulasi A) 1,2,3 B) 1,2 C) 2,3 D) 1,3
- 34.** DNK fragmentida umumiy kimyoviy bog'lar soni (nukleotidlararo) purin asoslaridan 4,5075 martaga ko'p. Fosfodiefir bog'lar soni G sonidan necha marta ko'pligini aniqlang (timin soni 195 ta). A) 4,09 B) 2,44 C) 3,89 D) 2,26
- 35.** Ma'lum bir zonada maksimum yashash yoshiga yetib bo'lgan 97 ta soxta kashtan va chinor (800 yosh) daraxtlari bor. Ularning o'rtacha yoshi 1529,9 ga teng bo'lsa, soxta kashtan soni chinordan nechtaga ko'p? A) 21 B) 16 C) 8 D) 19
- 36.** Halqali aminokislotalarni aniqlang. A) fenilalanin, tirozin, triptofan B) gistidin, prolin, glitsin C) oksiprolin, prolin, valin D) leysin, lizin, arginin
- 37.** To'g'ri fikrlarni aniqlang. 1) O'simliklarning tashqi muhitga har xil shaklda moslashishi hayotiy shakl deyiladi; 2) O'zbekistonda "Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi" tashkil etilgan; 3) Kuzda juda ko'p yovvoyi o'simliklarning mevasi pishib yetiladi; 4) Kuzda juda ko'p madaniy o'simliklarning mevasi pishib yetiladi A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 4 D) 2, 4
- 38.** Yetti nuqtali tugmachaqo'ng'izga xos xususiyatlarni aniqlang. 1. Tanasi 5,5 sm dan – 8 sm gacha bo'ladi; 2. Rang och jigarrangdan to'q jigarranggacha bo'ladi; 3. Qora dog'lari kattaligi va shakli bilinardan to bilinmasgacha bo'lishi aniqlanib, uning polimorf ekanligi isbotlangan; 4. Toshkent atrofida yirik va Qozog'istonning Taraz dalasida maydaroq bo'ladi A) 1,2 B) 3 C) 1,2,3,4 D) 2,3
- 39.** Sachratqining qaysi vegetativ organlaridan tayyorlangan dorilar oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi? 1. Ildiz; 2. Poya;

3. Barg A) 1,2,3 B) 1,2 C) 2,3 D) 1,3
40. Qaysi olim olamning o'z-o'zidan paydo bo'lgan, hayvonlar nam yerdan kelib chiqqan, dastlab ularning mayib-majruh xillari, keyinchalik harakatlanadigan, oziqlanadigan, urchiydigan, dushmandan o'zini himoya qiladigan normal hayvonlar paydo bo'lgan, degan?  
A) Klavdiy Galen B) Beruniy C) Forobiy D) Lukretsiy Kar
41. Madaniy o'simliklarning Sharqiy Osiyo kelib chiqish markazini aniqlang. A) soya, tariq B) tamaki, ananas C) kartoshka, kofe D) sholi, shakarqamish
42. Qovoqdoshlar oilasiga xos xususiyatlarni aniqlang. 1) asosan, bir yillik va ko'p yillik o'tlar kiradi; 2) barglari oddiy, gullari qiyshiq; 3) ayrim jinsli, hasharotlar yordamida changlanadi; 4) urug'chisi bitta, 3 ta urug'chibargning qo'shilishidan hosil bo'lgan A) 1,2,3,4 B) 1,2,3 C) 2,3,4 D) 1,3,4
43. To'g'ri fikrlarni aniqlang. 1. Asalari ekologik sistemani beqarorlashtirishga yordam bermaydi; 2. Arini Sirdaryo atrofidagi qarchig'aysimonlar turkumiga mansub arixo'r qush yeya oladi; 3. O'rmon chumolisi ichagida bir hujayrali soda hayvonlardan kipriklilar yashay oladi, ular yog'och qoldig'ini parchalashga yordam beradi A) 1,2,3 B) 1 C) 1,2 C) 2,3
44. Ma'lum DNK fragmentida vodorod bog'lar bilan nukleotidlar soni orasidagi farq 320 ga teng. DNK dagi fosfodiefir bog'lar sonini aniqlang. A) 1118 B) 1338 C) 1340 D) 669
45. Xlamidomonada tarkibiy qismini tashkil etuvchi tuzilmalarni aniqlang. 1) qobig'i; 2) yadro; 3) xivchin; 4) ko'zcha; 5) qisqaruvchi vakuola; 6) xromatofor A) 1,2,4,6 B) 1,2,3,4,5,6 C) 2,3,4,5,6 D) 1,2,3,4,6
46. Boshoyoqli molluskalarning asosiy ozig'ini aniqlang. A) baliq, chuvalchang, mikroorganizmlar B) krab, baliq, molluska C) molluska, chuvalchang, krab D) baliq, chuvalchang, mikroorganizm, krab, molluska
47. Odam genetikasini o'rganishda qanday usullardan foydalanamiz? A) sitokimyoviy, biokimyoviy B) geneologik, populatsion C) biokimyoviy, ontogenetik D) egizaklar, tajriba
48. Tunda oziqlanuvchi hayvonlarni belgilang. A) bo'ri, yapaloqqush, chayon, meduza B) daryo qisqichbaqasi, biy, qoraqurt, chayon C) biy, falanga, qurbaqa, bo'ri D) qoraqurt, bo'ri, meduza, daryo qisqichbaqasi
49. Neotropik biogeografik viloyatida uchraydigan organizmlarni aniqlang. A) opossum, malla revun B) shinshilla, koala C) lattachi baliq, gorilla D) kafr buyvoli, kotib qush

50. Yopiq qon aylanish sistemasiga ega hayvonlarni toping. A) nereida, lansetnik B) kalmar, bo'ri C) mushuk, chayon D) kapalak, o'rgimchak

51. Fiziologiya (a) va anatomiya (b) fani rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlarni aniqlang. A) a-Xudoyberdiyev; b-Alavi B) a-Qodirov; b-Mahmudov C) a-Tursunov; b-Asomov D) a-Daminov; b-Rahimov

52. Darvin sun'iy tanlashining muvaffaqiyatli chiqishida nimalarga e'tibor bergan? 1) tanlash olib borilayotgan organizmning nazoratsiz chatishmasligiga; 2) seleksionerning tajribasi, sinchkovligiga; 3) tanlash ta'sirini irsiy o'zgaruvchanlik tufayli to'plana borishiga bog'liq ekanligiga; 4) individual o'zgaruvchanlikka A) 1,2,3 B) 2,3,4 C) 1,3,4 D) 1,2,3,4

53. Peshana suyagi qaysi suyak bilan chegaralanmagan? A) chakka suyagi B) tepa suyagi C) yonoq suyagi D) burun suyagi

54. Sobir bir soatda 960 marta nafas oladi. Har nafas olganda o'pkasiga 400 ml atmosfera havosi kirsa, Sobir o'pkasining minutlik ventilyatsiyasini aniqlang. A) 6,4 litr B) 8 litr C) 9 litr D) 2,4 litr

55. Hasharotxo'r turkumiga mansub

bo'lgan quruqlik hayvonlarini belgilang. A) sakrovchi, vixuxol B) oltinrangli krot, yerqazar C) krot, kutora D) tipratikan, kutora

56. Gipovitaminoz B<sub>1</sub> da kuzatiladigan holatlarni aniqlang. 1) tez charchash; 2) holsizlik; 3) bosh og'rig'i; 4) nafas yo'llari yallig'lanishi; 5) oyog'ini yaxshi ko'tara olmaydi A) 3,5 B) 1,2 C) 2,3,4 D) 2,5

57. Na'matak o'simligining gultojbarglarining qizil bo'lishi oq bo'lishi ustidan to'liqsiz dominantlik qilsa, qizil va oq gultojbargli formalar chatishtirilganda F<sub>2</sub> da 6000 ta o'simlik olingan. Ularning nechtasi oraliq formaga ega bo'lmaydi? A) 1000 B) 1500 C) 2000 D) 3000

58. Bir haftada katta odamda o'rtacha necha g azot qoldig'i (a) va osh tuzi (b) ajraladi? A) a-14; b-7 B) a-28; b-14 C) a-14; b-28 D) a-7; b-14

59. Noto'g'ri fikrni aniqlang. A) ichki quloq – bo'shliq va yarimdoira kanalchalar sistemasidan, ya'ni suyak labirintdan iborat B) tuxumdonning po'stloq qismida yosh jinsiy hujayralar bo'ladi C) yo'ldosh homilaning tashqi qismidan hosil bo'ladi D) ta'm bilish retseptorlari til so'rg'ichlarida, yumshoq tanglay, tomoq shilliq pardasida hamda tomoqdagi bodomsimon bezlarning ostki qavatida bo'ladi

60. Metilen sinkasi qanday rangli bo'yoq? A) ko'k B) qizil C) qora D) sariq

## KIMYO

Tuzuvchi: Farrux FUNUN

61. 1 g qo'rg'oshin  $^{211}\text{Pb}$  izotopi sekundiga  $3,25 \cdot 10^{10}$  ta  $\alpha$ -zarracha chiqaradi. Yemirilish konstantasi ( $\lambda$ )ni hisoblang. A)  $5,68 \cdot 10^6$  B)  $3,59 \cdot 10^{-4}$  C)  $12,76 \cdot 10^{-9}$  D)  $6,84 \cdot 10^{-11}$
62. Kobalt qaysi mineral o'g'itlar bilan qo'shib ishlatilganda g'o'zaning rivojlanishi tezlashadi va hosildorlikni gektariga 3-4 sentnerga oshiradi? A) H, O, C, N, Ca B) Mn, Zn, B, Cu C) Mn, Cu, Mo, B D) O, Mg, Cu, P
63. Sulfit kislotadan 34,3 g sulfat kislota olindi. Reaksiyada sarflangan xlor massasini aniqlang. A) 24,85 g B) 12,42 g C) 6,2 g D) 37,3 g
64. Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida chap va o'ng tomondagi koeffitsiyentlar nisbatini aniqlang:  
 $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7 + \text{KI} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Cr}_2(\text{SO}_4)_3 + \text{I}_2 + \text{K}_2\text{SO}_4 + \text{H}_2\text{O}$  A) 0,93 B) 1,13 C) 1,07 D) 0,88
65. Asos tarkibida vodorodning massa ulushi 3,846% bo'lsa, birikmaning molekulyar massasini aniqlang. A) 40 B) 78 C) 56 D) 90
66. Qaysi birikma tibbiyotda ultrabinafsha nur bilan ishlovchi asboblarda qo'llanadi? A)  $\text{SiO}_2$  B) NaCl C)  $\text{FeBr}_3$  D)  $\text{BaSO}_4$
67. Nitrat kislotaning 300 ml 70% li eritmasi (zichligi 1,5 g/ml) yorug'lik ta'sirida qizdirildi. Hosil bo'lgan gaz(lar)ga 28 g geliy qo'shildi va ushbu aralashmaning zichligi reaksiya unumidan  $113467 \cdot 10^{-5}$  marta katta bo'lsa, oxirgi gazlar aralashmasining geliyga nisbatan zichligini aniqlang. A) 32 B) 20,33 C) 5,08 D) 15,67
68. Pog'onachalarda elektronlarni to'lib borishi qaysi qoidaga asosan aniqlanadi? A) Pauli prinsipi B) V. M. Klechkovskiy C) Xund D) E. Rezerford
69. Natriy gidroksid eritmasida protonlar sonining neytronlar soniga nisbati eritma foiz konsentratsiyasidan 26,37 marta kam. Eritmaning foiz konsentratsiyasini toping. A) 61,87 B) 47,93 C) 35,76 D) 30,77
70. Qaysi qatordagi birikmalarda bog' qutbliligining kamayib borish ketma-ketligi to'g'ri berilgan? A)  $\text{CH}_4 \rightarrow \text{NH}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{HF}$  B)  $\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{HF} \rightarrow \text{NH}_3 \rightarrow \text{CH}_4$  C)  $\text{HF} \rightarrow \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{NH}_3 \rightarrow \text{CH}_4$  D)  $\text{CH}_4 \rightarrow \text{NH}_3 \rightarrow \text{HF} \rightarrow \text{H}_2\text{O}$
71. 0,8 M li sulfat kislota eritmasining molyalligi 0,749 kg/mol ga teng. Eritma zichligini (g/ml) aniqlang. A) 1,068 B)



0,936 C) 1,146 D) 1,214

72. Uglarodning qanday allotropik shakl ko'rinishlari bor? A) grafin, karbit B) grafit, karbin C) grafin, karbin D) grafit, karbit

73. 3 valentli metall dixromat va manganat tuzlaridagi metallning massa ulushlari farqi 5,45% ni tashkil qilsa, metallni aniqlang. A) Al B) Fe C) Ni D) Co

74. Galogenlar qanday umumiy xossalarga ega? 1. Vodorod bilan uchuvchan gidridlar hosil qiladi; 2. Galogenlar gidridlarining suvdagi eritmasi kislotalardir; 3. Galogenlar gidridlarda, metallar bilan hosil qilgan tuzlarda bir valentlidir; 4. Kislorod bilan hosil qilgan yuqori oksidlarida galogenlar yetti valentli; 5. Galogenlarning atom massalari ortib borishi bilan fizik xossalari davriy ravishda o'zgarib boradi; 6. Galogenlarning atom massalari ortib borishi bilan kimyoviy xossalari davriy ravishda o'zgarib boradi A) 1,2,3,4,5,6 B) 2,3,4,5 C) 2,4,6 D) 1,2,3,5,6

75. 10,67 g mis yetarli miqdorda oltingugurt bilan birikib, CuS hosil bo'lishida 6,066 kJ issiqlik ajralib chiqqan. Mis (II) sulfidning hosil bo'lish issiqligi Q (kJ) ni toping (reaksiya unumi 75%). A) 65,7 B) 36,3 C) 64,7 D) 48,5

76. 32,4 g kumushga ozon ta'sir ettirilishidan hosil bo'lgan gaz hajmini (litr) aniqlang. A) gaz hosil bo'lmaydi B) 6,72 C) 8,4 D) 4,2

77. Quyidagi oddiy moddalarning qaysilari suyuq: 1. Brom; 2. Seziy; 3. Fransiy; 4. Simob A) 1,2,3,4 B) 1,4 C) 4 D) 1,3,4

78. Propan, is gazi va karbonat angidrididan iborat gazlar aralashmasi (is gazining hajmi karbonat angidrid hajmidan 0,333 marta ko'p) mol miqdorda kislorodda yondirildi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasidagi karbonat angidridning hajmi dastlabki gazlar aralashmasi tarkibidagi karbonat angidridning hajmidan 2,333 marta ko'p bo'ldi. Dastlabki gazlar aralashmasining vodorodga nisbatan zichligini aniqlang. A) 20,4 B) 17,33 C) 15,07 D) 11,46

79. A. M. Butlerov asari keltirilgan qatorni aniqlang. A) "Organik kimyoni to'liq o'rganishga kirish" B) "Organik kimyo" C) "Organik kimyo tuzilish nazariyasi" D) "Organik kimyo asoslarini anglash"

80. Tirozin ksantoprotein reaksiyasiga kirishishi natijasida o'zidan 0,45 g ga og'ir bo'lgan sariq rangli nitrobirikma hosil bo'ldi. Reaksiyaga kirishgan HNO<sub>3</sub> massasini (g) aniqlang. A) 0,63 B) 0,315 C) 0,42 D) 3,15

81. Ortoklaz tarkibidagi metall(lar) va metallmas(lar)ning mos ravishda o'zaro massa nisbatini aniqlang. A) 0,31 B) 0,74 C) 1,64 D) 1,74

82. 5-metil-2,4-dioksipirimidinining 69,3 g miqdorini yoqish uchun sarflanadigan kislorod massasini (g) hisoblang. A) 40,48 B) 96,8 C) 11,2 D) 16

83. 61,2 g natriy stearat hosil qilish uchun sarflangan ishqor massasini (g) aniqlang. A) 40 B) 24 C) 8 D) 12

84. Noto'g'ri fikrni aniqlang. A) Reaksiyaga kirishadigan moddalar molekularini (zarrachalarini) aktiv zarrachalarga aylantirish uchun ularga berilishi lozim bo'lgan energiya aktivlanish energiyasi deyiladi B) Biror kimyoviy reaksiyada ishtirok etib, uning tezligini o'zgartiruvchi, o'zi esa reaksiya oxirida kimyoviy jihatdan o'zgarmay qoladigan moddalar katalizatorlar deb ataladi C) Gomogen katalizda reaksiyaga kirishuvchi moddalar va katalizatorlar bir fazali sistemani hosil qiladi, katalizator bilan reaksiyaga kirishuvchi moddalar orasida chegara sirti bo'ladi D) Tezlik doimiysi reaksiyada qatnashuvchi moddalar tabiatiga, temperaturaga, katalizatorlarning bor-yo'qligiga bog'liq, lekin konsentratsiyaga bog'liq bo'lmaydi

85. 21,6 g sianid kislota gidrolizlanishidan hosil bo'ladigan gazni sintez qilish uchun (birikish reaksiyasi bo'yicha) qancha hajm (litr) gaz(lar) kerak bo'ladi (nazariy jihatdan barcha reaksiya unumlarini 100% deb hisobga oling)? A) 13,44 litr B) 8,96 litr C) 35,84 litr D) 17,92 litr

86. Tibbiyotda "issiq emlama" deb ataluvchi dori vositasi tayyorlanadigan tuzni aniqlang, A) NaCN B) CaCl<sub>2</sub> C) BaSO<sub>4</sub> D) Mn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>

87. 26,1 g alkandan 2 bosqichda sirka kislota xlorangidridi olindi. Dastlabki

bosqich Emmanuel usuli hisoblanadi; 2-bosqichda 19,08 g vodorod xlorid olindi. Birinchi va ikkinchi bosqich reaksiya unumlari mos ravishda 1,33:1 bo'lsa, reaksiya jarayonida hosil bo'lgan suv massasini aniqlang. A) 7,13 g B) 16,2 g C) 14,6 g D) 1,6 g

88. Inozit va kverzitning molyar massalarini mos ravishda toping. A) 164; 180 B) 180; 164 C) 180; 150 D) 150; 180

89. Alkan kislorod bilan to'liq yondirildi. Olingan kislorod va alkan hajmlari oralig'idagi farq 35,84 litr, hosil bo'lgan moddalar orasidagi farq 8,96 litrga teng. Reaksiya uchun olingan alkanni aniqlang (kislorod yetarli miqdorda olingan, suv bug'lari kondensatlanmagan). A) propan B) butan C) pentan D) geksan

90. Galantamin qaysi o'simlikning yer ustki qismidan olinadi? A) Unqernia victoris B) Anabasis aphyhla C) Nicotiana tabacum D) Geveya

***Harakatning chin dildan gurkirashi  
natijaning 99% iga teng!!!***

***Farrux FUNUN***